




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar noyabr oylarida chakana savdo aylanmasi **7908,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **5,0** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1023,2** mlrd. so'mni (**42,9** % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6885,1** mlrd. so'mni (**10,9** % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **4030,8** mlrd. so'mni (**8,6** % ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7908,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **5,0 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 87,1 % va yirik korxonalar hissasiga **12.9 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Baxmal tumani **22,7 %** ulush bilan **1800,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.




ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **74,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



| Yirik korxonalar | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari | |
|------------------|---|------------------------|
| | | 2020-yil Yanvar-noyabr |
| | | 2021-yil Yanvar-noyabr |

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **6885,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10,9 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,8 %), Yangiobod (99,9 %), G'allaorol (98,5 %), Forish (99,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalarmlr d. so'm | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiyy tadbirkor lik, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------|---------------------|---|-----------------------------------|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 7908,3 | 105,0 | 1023,2 | 57,1 | 6885,1 | 110,9 |
| Jizzax sh. | 1659,5 | 101,7 | 235,5 | 38,6 | 1424,0 | 114,9 |
| tumanlar: | | | 0,0 | | 0,0 | |
| Arnasoy | 173,4 | 106,7 | 1,7 | 15,3 | 171,7 | 107,2 |
| Baxmal | 1800,9 | 100,3 | 693,7 | 71,9 | 1107,2 | 115,3 |
| G'allaorol | 714,4 | 102,5 | 15,4 | 135,0 | 699,0 | 101,8 |
| Sharof Rashidov | 969,7 | 103,3 | 1,7 | 12,6 | 968,0 | 103,3 |
| Do'stlik | 285,5 | 127,7 | 8,2 | 41,9 | 277,3 | 128,2 |
| Zomin | 1019,4 | 106,2 | 40,0 | 105,7 | 979,3 | 105,6 |
| Zarbdor | 276,5 | 123,9 | 5,5 | 17,8 | 271,0 | 124,9 |
| Mirzacho'l | 203,7 | 107,2 | 4,6 | 20,8 | 199,1 | 107,6 |
| Zafarobod | 146,9 | 127,2 | 1,8 | 8,8 | 145,1 | 128,0 |
| Paxtakor | 317,9 | 121,8 | 8,7 | 21,6 | 309,1 | 129,8 |
| Forish | 266,1 | 101,7 | 4,9 | 77,0 | 261,2 | 102,1 |
| Yangiobod | 74,5 | 100,8 | 1,4 | 73,3 | 73,1 | 101,1 |

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **42,9 %** ga kamaydi va **1023,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6885,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,9 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,1 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (99,8 %), Zafarobod (99,8 %), Yangiobod (99,9 %), G'allaorol (98,5 %), Forish (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12.9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (23,5 %), Paxtakor (0,9 %), Baxmal (67,0 %) va Do'stlik (0,8 %) tumanlarida kuzatildi.





**JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5558,7** ming so'm (2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,8** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**9108,1** ming so'm), Baxmal (**11199,1** ming so'm), Zomin (**6049,6** ming so'm) va Sharof Rashidov (**4241,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




| | Hajm, ming so'm | 2020-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, % da |
|-----------------|--------------------|--|
| Jizzax viloyati | 5558,7 | 102,75 |
| Jizzax sh. | 9108,1 | 99,702 |
| tumanlar: | | |
| Arnasoy | 3705,5 | 105,15 |
| Baxmal | 11200 | 98,103 |
| G'allaorol | 4047,4 | 100,31 |
| Sharof Rashidov | 4241,8 | 100,51 |
| Do'stlik | 4260,6 | 125,39 |
| Zomin | 6049,6 | 103,83 |
| Zarbdor | 3107,3 | 120,75 |
| Mirzacho'l | 3850 | 105,33 |
| Zafarobod | 2886,4 | 125,24 |
| Paxtakor | 4166,2 | 119,38 |
| Forish | 2819,2 | 100,15 |
| Yangiobod | 2587 | 99,052 |




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1267,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **9,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **422,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,8 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **843,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **27,0%** ga oshdi) .


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



8,6 mlrd.
so'm

Tuzlamalar



165,2
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



13,5
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

55,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



16,5
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

28,3
mlrd. so'm



Tuxum

46,5
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

42,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

3,3
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2021-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **422,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (165,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

11,9
mlrd. so'm



Ziravorlar

30,9
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **769,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **600,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **223,1** mlrd. so'mni, otlar **16,1** mlrd. so'mni, parrandalar **3,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **127,0** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **7,8 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



| | Jami, mln. so‘m | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda |
|------------------|--------------------|--|---|--|
| Jizzax viloyati | 127064,3 | 107,8 | 122735,4 | 107,9 |
| Jizzax sh. | 62321,8 | 108,2 | 61365,1 | 108,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Arnasoy | 851,0 | 101,0 | 716,8 | 105,0 |
| Baxmal | 2455,0 | 108,1 | 1909,5 | 104,9 |
| G‘allaorol | 7715,7 | 107,2 | 7343,4 | 107,6 |
| Sh. Rashidov | 22552,8 | 108,2 | 21868,9 | 108,0 |
| Do‘stlik | 4343,0 | 106,3 | 4161,2 | 107,6 |
| Zomin | 8914,9 | 108,9 | 8330,5 | 107,7 |
| Zarbdor | 3835,4 | 106,4 | 3675,2 | 107,7 |
| Mirzacho‘l | 4961,3 | 107,4 | 4809,8 | 108,4 |
| Zafarobod | 1092,5 | 102,9 | 967,0 | 106,2 |
| Paxtakor | 4110,2 | 106,4 | 3924,0 | 107,8 |
| Forish | 3125,0 | 105,6 | 2934,6 | 107,5 |
| Yangiobod | 785,7 | 105,0 | 729,4 | 106,8 |

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2314,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **7,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **502,3** mlrd. so'mni (**7,7 %** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1812,4** mlrd. so'mni (**8,0 %** ga oshdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**108,0 %**), Baxmal (**123,7%**) va Do'stlik (**197,8 %**) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar- noyabr nisbatan, foizda |
|-----------------|---------------------|--|---------------------------------|---|--|---|
| Jizzax viloyati | 2314,7 | 107,9 | 502,3 | 107,7 | 1812,4 | 108,0 |
| Jizzax sh. | 1256,5 | 108,0 | 251,8 | 115,1 | 1004,7 | 106,3 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Arnasoy | 4,1 | 33,0 | 0,1 | 0,9 | 4,0 | 120,5 |
| Baxmal | 208,2 | 123,7 | 152,8 | 117,8 | 55,4 | 143,5 |
| G'allaorol | 62,7 | 115,0 | 0,3 | 41,0 | 62,4 | 116,2 |
| Sh. Rashidov | 141,8 | 97,2 | 0,1 | 1,0 | 141,7 | 105,5 |
| Do'stlik | 203,3 | 197,8 | 95,6 | 787,3 | 107,7 | 118,8 |
| Zomin | 234,2 | 104,2 | 0,0 | 0,9 | 234,2 | 106,5 |
| Zarbdor | 29,7 | 55,4 | 0,0 | 0,2 | 29,7 | 104,1 |
| Mirzacho'l | 5,8 | 26,6 | 0,2 | 0,9 | 5,7 | 112,7 |
| Zafarobod | 15,9 | 47,0 | 0,3 | 1,4 | 15,6 | 103,5 |
| Paxtakor | 21,9 | 57,8 | 0,4 | 2,2 | 21,5 | 106,8 |
| Forish | 119,3 | 104,1 | 0,5 | 120,6 | 118,8 | 104,1 |
| Yangiobod | 11,1 | 107,7 | 0,1 | 27,8 | 11,1 | 109,9 |




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **1812,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **8,0** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **78,3** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,3** %), G'allaorol (**99,5** %), Forish (**99,6** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**26,6** %), Do'stlik (**53,0**%) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26